

Sardor Rahimhon

"Baxting"

Visit "[Baxting](#)" on MotoLyrics.com

Ne uchun qarog'ing g'amli, qayg'uli,
Ne uchun quvonching butunmas, jonim?
Tiriklik sharbati goho og'uli,
Seni asragayman, bordur imkonim.
Ko'z yosh to'kmagin, ey, go'zal qushca -
Seni so'rar bir gul g'unca!
Sochlaring silaydi asta shamol,
Sog'intirmay, jonim, kela qol!

Ko'zlaring tubida sir bor qandaydir,
Aytmayсан, jilmayib qo'yasan goho.
Dunyoda sirdosh ham, bilsang, kerakdir,
Dardingga men sherik bo'layin tanho -
Toki ko'zlaringdan quvonch porlasin,
Toki senga qarab qilsinlar havas,
Doimo chorlasin shodligu sevinch,
Baxting butun bo'lsin har dam, har nafas,
Baxting butun bo'lsin...

Ko'z yosh to'kmagin, ey, go'zal qushca -
Seni so'rar bir gul g'unca!
Sochlaring silaydi asta shamol,
Sog'intirmay, jonim, kela qol! (2x)

Visit [Sardor Rahimhon](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.